

# **BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

**2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- avgust oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- avgust oylarida, birlikda)




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

6


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)





Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,7 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik,  
chovachilik, ovchilik va bu  
sohalarda xizmat ko'rsatish  
■ O'rmon xo'jaligi  
■ Baliq xo'jaligi



# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

7



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 826 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,9 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 119,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,9%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 109,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 123,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 153,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,3 foizga oshdi**




## Kichik tadbirkorlik subyektlarisoni



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar





## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


9



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,1** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlarisoni



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan  
**20,0** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

714



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

20



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

12



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



380

yashash bo'yicha xizmatlar



1 948

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 328 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 118,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,7%), yashash bo'yicha xizmatlarning- 100,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,3 %) o'sishidir.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Oilaviy korxonalar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 3 410 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 753 taga yoki 128,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 142 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 665 taga yoki 126,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 615 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142 taga yoki 18,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 330 tani tashkil etib, ulardan 324 tasiyoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 38 taga yoki 113,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- avgust oylarida viloyatimizda 39 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- avgust oylarida, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	86	128	241	286	324
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1	5	20	20	30
Sanoat	59	72	106	123	132
Qurilish	3	7	22	28	33
Savdo	9	19	48	60	72
Tashish va saqlash	-	1	5	6	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	10	18	21	23
Axborot va aloqa	1	-	1	1	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	4	6	7
Boshqa turlar	6	12	17	21	22

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>324</b>	<b>193</b>	<b>131</b>
<b>Buxoro shahar</b>	<b>168</b>	<b>89</b>	<b>79</b>
<b>Kogon shahar</b>	<b>15</b>	<b>12</b>	<b>3</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Olot</b>	<b>7</b>	<b>2</b>	<b>5</b>
<b>Buxoro</b>	<b>20</b>	<b>16</b>	<b>4</b>
<b>Vobkent</b>	<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>11</b>	<b>8</b>	<b>3</b>
<b>Kogon</b>	<b>26</b>	<b>19</b>	<b>7</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>2</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>12</b>	<b>6</b>	<b>6</b>
<b>Peshku</b>	<b>19</b>	<b>8</b>	<b>11</b>
<b>Romitan</b>	<b>11</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
<b>Jondor</b>	<b>14</b>	<b>11</b>	<b>3</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>2</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 168 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 51,9 %), Kogon tumani 26 ta (8,0 %), Peshku tumani 19 tani (5,9 %), Kogon shahar 15 ta (4,6 %), Buxoro tumani 20 ta (6,2 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (4,3 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- sentabr  
holatigako'ra, ro'yxatdan o'tgan  
korxona va tashkilotlar hududlar  
kesimida taqsimlanganda ularning  
ulushi Buxoro shahri (29,4 %),  
G'ijduvon (10,6 %), Romitan(8,2 %),  
Buxoro (7,7 %), Jondor (6,6 %),  
Peshku (6,0 %), Shofirkon (6,0 %),  
Kogon (5,3 %), Qorako'l (5,3 %),  
Vobkent (5,0 %), Kogon shahar  
(4,0 %), Olot (3,5 %), Qorovulbozor  
(2,4 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil yanvar- avgust oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar- avgust  
oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonava tashkilotlar hududlar  
kesimida taqsimlanganda, ularning  
soni Buxoro shahri (25,2 %), G'ijduvon  
(9,6 %), Buxoro (9,0 %), Romitan  
(8,5 %), Peshku (5,3 %), Kogon  
(5,8 %), Jondor (8,4 %), Vobkent  
(5,5 %), Shofirkon (6,7 %), Qorako'l  
(5,7 %), Olot (4,6 %), Qorovulbozor  
(2,4 %) tumanlari va Kogon shahar  
(3,3 %), ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

18



2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (30,1 %), G'ijduvon (10,3 %), Romitan (8,5 %), Buxoro (8,0 %), Jondor (6,9 %), Peshku (5,9 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,5 %), Vobkent (5,0 %), Qorako'l (4,6 %), Kogon shahar (4,0 %), Olot (3,1 %), Qorovulbozor (2,4 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021-yilning yanvar- avgust oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. The left sidebar has a section titled 'RASMIYIY STATISTIKA' with links like 'Elon qilish taqimasi', 'Metama'lumotlar', etc. The central part shows a search form where a user has typed 'STIR kodini kiriting'. A dropdown menu appears with several options, and 'Statistik klassifikatsiyalar' is selected. To the right, there's a column titled 'FOYDALI MA`LUMOTLAR' with links to 'Ahollini ro'yxatga olish-2022' and other statistical reports.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: (65) 223-83-20**